

# O'ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO'JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

UDK: 633.511.631-2

### GOSSYPIUM BARBADENSE TURIGA MANSUB ISTIQBOLLI LINIYALAR

**Avliyoqulov Nurali Eronqulovich**

ITPITI, q.x.f.n., k.i.x.

nuraliavliyoqulov54@mail.ru

**Avliyoqulov Turg'un Nuraliyevich**

Surxondaryo viloyati Agrokimyoviy tahlil markazi, Agroekologiya bosh toksikolog

lasetti95@mail.ru

**Annotatsiya:** Tadqiqotlar natijasida yaratilgan L-430, L-302 navlari standart navlarga nisbatan eng yuqori hosildorlikka ega bo'lib, hosildorligi 0,7-16,7% ni tashkil qiladi, tola hosildorligi bo'yicha esa L-302 eng yuqori hosildorlikka ega bo'lib, 34,4% ni tashkil qiladi.

**Abstract:** In the results of the investigation of L-430, L-302, the yield is 0.7-16.7% higher compared to standard varieties, and the yield of L-302 is higher than 34.4%.

**Аннотация:** В результате исследования созданных Л-430,Л-302 наиболее урожайным по сравнению со стандартными сортами урожай больше 0,7-16,7 %, по выходу волокна Л-302 наиболее высоковыходным 34,4 %.

**Kalit so'zlar:** Ingichka va o'rta tolali g'o'zani duragaylash, chatishtirish, yakka tanlov, qatorli va qanorli, tez pisharlik, ko'sak, tola sifati, uzilish quvvati, metrik raqami, chiziqli zichlik, mikroneyr, tola uzunligi, tola chiqimi.

**Keywords:** Crossbreeding of fine and medium-fiber cotton, crossbreeding, single selection, row and warp, fast-drying, slub, fiber quality, breaking strength, metric number, linear density, micronaire, fiber length, fiber yield.

**Ключевые слова:** Скрещивание тонко- и средневолокнистого хлопка, скрещивание, простой отбор, ряд и основа, быстросохнущий, утолщенный, качество волокна, разрывная прочность, метрический номер, линейная плотность, микронейр, длина волокна, выход волокна.

Dunyo bozorida raqobatning yuqori darajasiga, zamonaviy texnologik paxta va tez ishlovchi to'qimachilik uskunalarining yaratilishi, yuqori sifatli va raqobatbardosh

# **O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

## **II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

to‘qimachilik mahsulotlari olinishi zarurligi paxta tolasi sifatiga bo‘lgan talablarni yanada kuchayishiga olib keldi.

Yaxshi saralangan, unuvchanlik darajasi eng yuqori bo‘lgan urug‘lik chigitni ekish, birinchidan, to‘liq ko‘chat olishni ta‘minlasa, ikkinchidan, o‘simliklar butun o‘suv davrida yaxshi rivojlanib, yuqori va ertachi hosil to‘playdi hamda hosildorligi har gektariga 3-5 sentner yuqori bo‘ladi. Shuning uchun ham xalqimiz “Sara urug‘ hosil bo‘liq” deb bejizga aytmagan.

Respublikamizda paxta hosildorligini oshirish va to‘qimachilik sanoatini yuqori sifatli xom ashyo bilan ta‘minlash ko‘p jihatdan yaratilayotgan yangi g‘o‘za navlariga bog‘liqdir. Shuning uchun tezpishar, serhosil, kasallik zararkunandalarga bardoshli, tola sifati xozirgi jahon bozor talablariga javob beradigan, mashina terimiga qulay bo‘lgan yangi navlarni yaratish va joriy etish kabi muammolarni yechish seleksionerlarimiz oldida turgan asosiy vazifadir.

Hozirgi kunda seleksioner olimlar seleksiya sohasidagi mavjud barcha usullardan foydalangan holda tola sifati yuqori bo‘lgan donorlarni izlab topish, yovvoyi va yarim yovvoyi namunalarni chatishtirish ishlariga jalb etgan holda yangi navlar yaratish ustida ishlab kelmoqdalar.

Navlardan yuqori va sifatli hosil olish qishloq xo‘jaligining asosiy maqsadi hisoblanadi. Buning uchun dastavval ular tezpishar, ya‘ni hosilning kamida 85-90 protsenti birini, sanoat sortlarini tashkil etishi, tola chiqishi yuqori, ko‘saklari yirik bo‘lishi, o‘shish davomida vaqtincha ro‘y berishi mumkin bo‘lgan noqulay sharoitlarga bardosh bera olishi kerak. Bulardan tashqari g‘o‘za navlari ancha keng tarqalgan kasallik va zararkunandalarga chidamli, hosili mashinalar yordamida terib olishga moslashgan, tupi esa yotib qolmaydigan, tarvaqaylab shoxlamaydigan (hosil shoxlari I va II tipga mansub), paxtasi chanoqlariga yaxshiroq yopishib turadigan (to‘kilmaydigan) bo‘lishi kerak.

G‘o‘za navlaridan yuqori va sifatli hosil olish asosiy maqsad hisoblanadi. Buning uchun dastavval ular tezpishar, ya‘ni hosilning kamida 85-90 foizi birinchi sanoat navlarini tashkil etilishi, tola chiqishi yuqori, ko‘saklari yirik bo‘lishi, o‘shish

# **O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

## **II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

davomida vaqtincha ro‘y berishi mumkin bo‘lgan noqulay sharoitlarga bardosh bera olishi kerak. Bulardan tashqari g‘o‘za navlari ancha keng tarqalgan kasallik va zararkunandalarga chidamli, paxtasi chanoqlariga yaxshiroq yopishib turadigan (to‘kilmaydigan) bo‘lishi kerak.

Ingichk tolali paxtachilik ilmiy tadqiqod instituti amaliy molekulyar genetika bo‘limida stansion nav sinash tajriba dalasi o‘tloqi taqir tuproq, sizot suv sathi 1,5-2,2 m, maydoni 20,02 uzunligi 17 m va eni 1,2 m 1 qator orasi 60 sm bo‘lib 2 qatordan iborat, to‘rt qaytariqda bir yarusda joylashgan bo‘lib tajribadagi variantlar L-430, L-302, andoza birinchi tip st 9871-I, ikkinchi tip st Termiz-24 to‘rt qaytariqda bir yarusda joylashtirilgan.

Ko‘chat qalinligi 73,5-76,5, 50 % gullashi andoza 60-63 kun, 50 % pishishi L-430 110 kun andoza 9871-I va Termiz-24 navlariga nisbatan 3-6 kun ertapishar, L-302 112 kun andozaga nisbatan 1-4 kun ertapisharligi aniqlandi.

Sentabr hosilini xisoblaganimizda L-430, L-302lar 32,2-33,5 , andoza navlarda esa 20,2-31,2, umumiy hosilni xisoblaganimizda L-430, L-302 40,1-40,7 s/ga yoki andoza navlarga nisbatan 0,7-16,7 s/ga yuqori hosil olindi.

Bir dona ko‘rak vaznini o‘lchanganida eng kichkina ko‘rak andoza 9871-I navida 2,6 gr, qolgan delyankalarda esa 3,0-3,1 gr ni tashkil qildi.

Tola chiqimi L-302 tizmasida eng yuqori ko‘rsatkich ya‘ni 34,4%, eng past ko‘rsatkich esa 9871-I navida bo‘lib 25,3% ni tashkil qildi.

1000 dona chigit vaznini xisoblaganimizda delyankalararo 138-141 gramni tashkil etdi. Tola uzunligi variantlararo 39,9-40,8 mm ni tashkil etdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O.T.Alimardonov “Respublikaning janubiy xududlarida ingichka tolali g‘o‘zaning birinchi tip tola beradigan SP-1607 navidan yuqori xosil yetishtirish agrotexnologiyasi bo‘yicha tavsiyalar” Termiz 2025y 6.b.

2. Sh.S.Qo‘ziboyev, F.K.Abduvoxidov, “Urug‘lik chigit sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash uslubini takomillashtirish” Toshkent 2023y 3b.

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

3. I.Xoshimov, D.Jonibekov “Turli usul va sxemalardagi chigit ekishning ko‘chat qalinligiga ta’siri” Agroilm ilmiy amaliy jurnal 2022y №5 17b.

4. M.Saidov, X.Zokirov “Paxtachilik” darslik Termiz 2024y 177-185b.

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA  
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

**Stansion tizmalarning ko‘chat qalinligi, 50% gullashi, pishishi, sentabr va umumiy hosildorligi, bir dona ko‘sak  
vazni, tola chiqimi, 1000 dona chigit vazni, tola uzunligi**

№	Nav va tizmalar	Ko‘ chat qalinligi ming/ga	50% gullash, kun	50 % pishish, kun	Andoza Navlarga nisbatan		Sentabr hosili, s/ga	Umumiy hosil, s/ga	Andoza navlarga nisbatan		Bir dona ko‘ rak vazni gr.	Tola chiqimi,%	1000 dona chigit vazni, gr.	Tola uzunligi, mm
					9871-I	T-24			9871-I	T-24				
1	L-430	76,3	60	110	-6	-3	32,2	40,1	114,5	100,7	3,1	33,9	140	40,8
2	L-302	76,0	61	112	-4	-1	33,5	40,7	116,7	102,2	3,1	34,4	141	40,0
3	St 9871-и	73,5	63	116	0	+3	20,2	35,0	100	87,9	2,6	25,3	138	40,6
4	St Termiz-24	76,5	61	113	-3	0	31,2	39,8	113,7	100	3,0	32,6	140	39,9